



Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9 738,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 15,1 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 850,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 144,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 887,4mlrd. so'mni (12,9 % ga ko'paygan). Shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 374,6 mlrd. so'mni (18,2% ga ko'paydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 738,3** mlrd. so'm ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 15,1% ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,3 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,7 %** to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 44,1 % ulush 4 298,6 mlrd. so'm ni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida 2,9 % ulush bilan 278,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, 8 887,4 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 12,9 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 91,3 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Uychi (99,1 %) Kosonsoy (98,8 %), Yangiqo'rg'on (97,7 %) , Chortoq va Mingbuloq (97,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2022 - yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Uychi (124,2%), Chust (124,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





■ Chakana savdo aylanmasi

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	9 738,3	115,1	850,9	144,7	8 887,4	112,9
Namangan sh.	4 298,6	112,2	355,1	144,2	3 943,4	110,0
tumanlar:						
Mingbuloq	278,5	113,4	7,5	223,0	271,0	111,9
Kosonsoy	398,8	112,6	4,8	106,2	394,0	112,6
Namangan	447,1	116,6	32,3	285,3	414,8	111,5
Norin	426,8	118,9	31,1	98,1	395,7	120,9
Pop	522,7	110,8	23,5	54,8	499,2	116,4
To'raqo'rg'on	650,8	119,8	65,9	150,6	585,0	117,1
Uychi	483,1	124,2	4,3	100,7	478,7	124,5
Uchqo'rg'on	379,1	114,7	20,7	98,0	358,4	115,9
Chortoq	393,4	113,6	10,5	103,5	382,9	114,0
Chust	1 001,2	124,0	284,6	180,8	716,6	110,3
Yangiqo'rg'on	458,2	115,4	10,6	92,9	447,6	116,0

Yirik korxonalar



Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 44,7 % ga ko'paygan va **850,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **8 887,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **12,9 %** ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,3 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi, (99,1 %), Kosonsoy (98,8 %), va Yangiqo'rg'on (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (28,4 %), To'raqo'rg'on (10,1 %), Namangan sh.(8,3 %) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYATI Bo'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 306,5** ming so'm (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 12,6 % ga ko'paygan). Chust (121,6 %), Uychi (121,3 %), To'raqo'rg'on (116,8%) va Norin (116,7 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (6 465,0 ming so'm), Chust (3 632,7 ming so'm) va To'raqo'rg'on (2 770,7ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	3 306,5	112,6
Namangan sh.	6 465,0	109,4
tumanlar:		
Mingbuloq	2 112,9	110,9
Kosonsoy	1 822,7	110,0
Namangan	2 419,5	114,0
Norin	2 512,3	116,7
Pop	2 294,4	108,7
To'raqo'rg'on	2 770,7	116,8
Uychi	2 164,4	121,3
Uchqo'rg'on	2 120,1	112,6
Chortoq	1 901,4	111,5
Chust	3 632,7	121,6
Yangiqo'rg'on	2 011,5	112,8



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **162,2 mlrd. so‘mga** yetdi va 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **17,9 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **85,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	162,2	117,9	23,8	346,9	138,4	105,8
Namangan sh.	92,8	119,7	17,4	253,8	75,4	106,7
tumanlar:						
Mingbuloq	4,0	105,0	0,0	0,0	4,0	105,0
Kosonsoy	3,9	105,7	0,0	0,0	3,9	105,7
Namangan	11,3	132,5	2,3	0,0	9,0	105,0
Norin	3,3	107,2	0,0	0,0	3,3	107,2
Pop	8,3	103,9	0,0	0,0	8,3	103,9
To‘raqo‘rg‘on	4,8	104,6	0,0	0,0	4,8	104,6
Uychi	2,8	107,1	0,0	0,0	2,8	107,8
Uchqo‘rg‘on	4,5	104,8	0,0	0,0	4,5	104,8
Chortoq	4,4	103,4	0,0	0,0	4,4	103,4
Chust	18,8	133,1	4,1	0,0	14,7	104,1
Yangiqo‘rg‘on	3,3	106,3	0,0	0,0	3,3	106,3

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 381,4** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **20,6 %** ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **943,9** mlrd. so'mni (**34,9 %** ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **3 437,5** mlrd. so'mni (**117,2 %** ga ko'paygan).


o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kosonsoy (92,4 m.), Pop (63,9 m.), Namangan (44,3 m.) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Kosonsoy (198,1 %), Namangan (195,8 %), Norin (174,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	4381,4	120,6	943,9	134,9	3437,5	117,2
Namangan sh. tumanlar:	2670,5	113,6	486,7	244,0	2183,8	101,5
Mingbuloq	57,5	165,5	0,1	27,5	57,5	166,3
Kosonsoy	181,2	198,1	14,6	9240,3	166,7	182,5
Namangan	160,6	195,8	35,4	4425,6	125,3	154,2
Norin	203,7	174,6	50,5	172,3	153,2	175,4
Pop	154,5	159,1	44,4	6389,4	110,0	114,1
To'raqo'rg'on	203,8	75,1	137,1	66,7	66,6	101,3
Uychi	243,4	124,0	47,0	42,4	196,4	229,6
Uchqo'rg'on	91,8	131,0	53,2	119,3	38,6	151,4
Chortoq	154,3	129,3	0,0	0,0	154,3	171,4
Chust	108,3	99,4	74,9	94,9	33,4	111,2
Yangiqo'rg'on	151,9	160,8	0,0	0,0	151,9	160,8

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar- iyul oylari yakuniga ko'ra, **3 437,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan **20,6** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **78,5** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on, (100,0 %), Mingbuloq, (99,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Chust (30,8 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel : (69)-211-72-00